

## SOYADAGI IZLAR

*Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani 2-son kasb-hunar maktabi*

*ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

***Raxmatova Gavhar***

Annotatsiya: O'tkir Hishimovning ijodiga bag'ishlangan "Soyadagi izlar" maqolasida yozuvchining "Nur borki soya bor" asari yetarlicha tahlil qilindi. Bu asarda Sherzod o'z kasbidan kelib chiqib jamiyatdagi ba'zi nohaqliklarga chiday olmasligi, ishiga mas'uliyatli bo'lgani, eng oqil mavjudot inson deymiz-u ba'zan odamning arzimagan narsaga aqli yetmay qoladi. Bir paqirga qimmat, o'tkinchi ikir-chikirlari uchun jon kuydiradi-yu, eng bebaho xazinasidan – salomatligidan judo bo'layotganini o'ylab o'tirmaydi. Oila eng muqaddas tushuncha uni o'z o'rnida qadrlash kerakligi, inson hayotida eng birinchi o'rinda uning salomatligi bebaho xazina ekanligini va do'stlar o'rtasidagi sadoqat va ishonchni yo'qotmaslik kabi tasvirlar Sherzod obrazi orqali hayotiy misollar orqali tasvirlanadi.

Kalit so'zlar: Sherzod, Sayfiddin Soqiyevich, (o'g'li Sirojiddin) Shoira, Rauf Abdullayevich, Farida.

XX asrda O'tkir Hoshimovning nasrda tutgan o'rni beqiyosdir. Mustabid tuzumi sharoitida o'zining haq so'zi bilan el orasida e'tibor qozondi. Adib asarlarini nasrdagi qo'shiq, tarona deb atash mumkin go'yoki yozmaydi, qalami uchidan so'zlar musiqa singari quyilib keladi. Asarlari hayotiyli, real voqealarga asoslanganligi bilan adabiyotimiz durdonalari qatorida yetakchi o'rinlarda turadi. Yozuvchining "Nur borki soya bor" asari sof va tushunarli bilan kitobxonlar qalbiga kirib borgan. Adib asarlarida hayotdan go'zallik izlaydi. Inson hayotidagi ayrim qusurlarni kamchilik deb emas, aksincha, vaqtida yetarlicha bilimga ega bo'lmaganlikda ayblaydi. Yoshlikda olgan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir deb bajizga aytilmagan asarda bilimsizlik oqibatida katta xatolar qilish "Tarixni o'rganmasdan, kelajakni o'rganib bo'lmashligini Sayfi Soqiyevichning o'g'li Sirojiddin kech anglaydi.

Asarda Sherzodning “Kattaga hurmatda kichikka izzatda bo’lishini har qadamda sezishimiz mumkin .Kasalxonada yotganganida palatasida bo’sh joy bo’la turib zalda yotgan otaxonni vrachlar nega shu palataga kirgizmaganini puldor Sayfi Soqiyevich kelgandagina tushundi. O’ziga har doim ishongan, qo’lini qayerga cho’zsa yeta oladigan Sayfi Soqiyevich atlasni ayollarga oz bergani uchun xalq gazetaga berishni to’g’ri deb o’ylaydi .Gazetaga chiqarish Sherzodni zimmasiga yuklatilgan edi. Sayfi Soqiyevichning o’g’li Sirojiddin Sherzod bilan murosaga kelolmaydi .Qancha desang beramiz lekin gazetaga chiqarma deb taklif bildiradi ,shunda Sherzod rad etadi. Sherzodni yo’q qilaman deb o’ylagan Sirojiddin aksincha do’sti Abdivohidga zarar yetkazib qo’yadi. Hech kimdan, hech narsadan qo’rqmaydigan doim haqiqat uchun kurashgan Sherzod Sirojiddinning qing’ir ishlaridan xabardor bo’ladi. Kasalxonada hamshira Shoiraning Sherzodga befarq emasligi, lekin yuragida hali ham Farida yozuvi o’chmaganligi uchun ham Shoiraning taklifini rad etadi .Shu o’rinda Sherzodning mard yigitlardan ekanligini ko’rishimiz mumkin. Sherzod onasi va singlisini har doim o’ylashi va ularning holidan xabar olishi oilaning muqaddas ekanligini ko’rishimiz mumkin.

Asarda Sirojiddin obrazi orqali biz o’zimizga yetarlicha tarbiyani olishimiz mumkin . Otasi Sayfi Soqiyevich o’g’li Sirojiddinning tarbiyasini maktab paytidan nato’g’ri tarbiyalaydi. Yomon baho olgan fandan o’qituvchisiga sovg’a salom qilish oqibatda Sirojiddin shu fanni o’zini ham ,o’qituvchisini ham ,hurmat qilmasligi keyinchalik Sirojiddin professor o’qituvchilarining yugurdagiga aylanadi.Fandan keraklicha bilimlarga ega bo’lmagani imtihon paytida bir talabaga ikki baho qo’ygani uchun Qilich Valiyev Sirojiddindan nega unday qilganini so’raganda “talaba ko’p joy kam”deb javob berishi nega bo’lmasa bilimlilarga “ikki “ baho bilimsizlarga” besh” qo’yayotganini so’raganda mulzam bo’lib qolishi vaqtida Sayfi Soqiyevichning xatosi o’g’li Sirojiddinning kelajagiga katta ta’sir qilish holatlarini ko’rishimiz mumkin . Shaxsiy hayotiga ham Sirojiddin yengil yelpi qaraydi .Elmirani sevib olishiga qaramasdan vaqt o’tib oilasiga befarq bo’lib qolishi hamma narsani pul bilan hal qilsa bo’ladi deb o’ylashi Sirojiddinning eng katta xato edi. Hayotda pul hal qilmaydigan tuyg’ular borligini Sirojiddin eshitishni ham tushunishni ham istamas edi.

Asardagi Sayfiddin Soqiyevich obrazi orqali jamiyatdagi ba'zi insonlarning kamchiliklari ochib berilgan. Birgina misol o'z o'g'li Sirojiddin hayotini oladigan bo'lsak maktab chog'idanoq o'g'lining tarbiyasini bilib bilmay nato'g'ri tanlab qo'ydi. Afsuski, hozirgi davrimizda ham mana shunday holatlarni yo'q deb ayta olmaymiz. Guruch kurmaksiz bo'lmagani kabi jamiyatimizda o'z farzandlarining kelajagiga befarqlar ham topilib qoladi. Agar Sayfi Soqiyevich ham o'z vaqtida o'g'liga to'g'ri tarbiya berganda edi Sirojiddinning kelajagi yoki bilimlari puch yong'oq bo'lib chiqmas edi. Bugungi yoshlarimizga Sherzoddek haqiqatni ayta oladigan, o'z nafsining quli bo'lmasliklarini, oilaga do'stlarga hurmatda bo'lish va albatta o'z kasbining mutaxassisi bo'lsa har qanday holatda ham o'zini va ilgari surgan g'oyasini oqlab chiqa olish imkoniyatlari yuqori ekanligini darzandlar qalbiga sindirishimiz kerak.

Shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda o'z soyasida faqat yaxshi izlar qoldirish, faqat yashiliklar qilish, o'z nafsining quli bo'lmasligini Sirojiddindek bilimlari puch emasligiga ishonch hosil qilish biz yoshlarning oldimizga qo'ygan eng oliy burchimiz bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Madrim Hamroyev, Sharofjon Sariyev "Adabiyot fanidan ma'lumotnoma" Yangi kitob Toshkent 2019.

O'tkir Hoshimov "Nur borki, soya bor" asari.

Sharafjon Sariyev "Adabiyot mukammal qo'llanma" Toshkent "Regbooks" nashriyoti 2020.